



# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024-yil yanvar-oktabr oylari  
uchun dastlabki ma'lumot*

## SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi:  
(76) 225-65-74



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Surxondaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-oktabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 323 710,8 ming AQSH dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 58 229,6 ming AQSH dollariga yoki 21,9 % ga ko'paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-oktabr, ming AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2024-y.: **323 710,8** +21,9 %

(2023-y.: **265 481,2**)



Saldo

2024-y.: **97 768,8** (2023-y.: **80 515,6**)




### Eksport

2024-y.: **210 739,8** +21,8 %

(2023-y.: **172 998,4**)

TSA'dagi ulushi, % da



65,1



### Import

2024-y.: **112 971,0** +22,2 %

(2023-y.: **97 768,8**)













34,9

**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

TSAda eksport hajmi 210 739,8 ming AQSH dollariga (21,8 % ga ko‘paydi) va import hajmi 112 971,0 ming AQSH dollariga (22,2 % ko‘paydi). Hisobot davrida 97 768,8 ming AQSH dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



### SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024-yil yanvar-oktabr, ming AQSH dollari)



<p><b>Rossiya</b></p> <p><b>TSA – 87 630,7</b></p> <p>Eksport: 84 172,1 Import: 3 458,6</p> <p> 27,1 %</p>	<p><b>Pokiston</b></p> <p><b>TSA – 51 241,9</b></p> <p>Eksport: 44 980,9 Import: 6 261,0</p> <p> 15,8 %</p>	<p><b>Turkiya</b></p> <p><b>TSA – 46 441,5</b></p> <p>Eksport: 12 929,1 Import: 33 512,4</p> <p> 14,3 %</p>	<p><b>XXR</b></p> <p><b>TSA – 39 315,9</b></p> <p>Eksport: 16 844,5 Import: 22 471,4</p> <p> 12,1 %</p>	<p><b>Afg‘oniston</b></p> <p><b>TSA – 30 386,8</b></p> <p>Eksport: 27 620,7 Import: 2 766,1</p> <p> 9,4 %</p>
<p><b>Qozog‘iston</b></p> <p><b>TSA – 20 991,7</b></p> <p>Eksport: 10 510,2 Import: 10 481,5</p> <p> 6,5 %</p>	<p><b>Germaniya</b></p> <p><b>TSA – 12 219,6</b></p> <p>Eksport: 305,9 Import: 11 913,6</p> <p> 3,8 %</p>	<p><b>Eron</b></p> <p><b>TSA – 4 903,5</b></p> <p>Eksport: 1 723,7 Import: 3 179,8</p> <p> 1,5 %</p>	<p><b>Hindiston</b></p> <p><b>TSA – 3 907,2</b></p> <p>Eksport: 289,3 Import: 3 617,9</p> <p> 1,2 %</p>	<p><b>Turkmaniston</b></p> <p><b>TSA – 3 633,9</b></p> <p>Eksport: 97,6 Import: 3 536,2</p> <p> 1,1 %</p>

Surxondaryo viloyati jahonning 68 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (27,1 %), Pokistonda (15,8 %), Turkiyada (14,3 %), XXRda (12,1 %), Afg‘onistonda (9,4 %), Qozog‘istonda (6,5 %), Germaniyada (3,8 %), Eron (1,5 %), Hindistonda (1,2 %), va Turkmaniston (1,1 %) qayd etilgan.













## SURXONDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, ming AQSH dollari)

Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
<b>Rossiya</b>	<b>61 633,9</b>	<b>21 556,0</b>	<b>87 630,7</b>
 Eksport	22 386,4	16 115,0	84 172,1
Import	39 247,6	5 441,0	3 458,6
<b>Pokiston</b>	<b>59 082,7</b>	<b>62 392,3</b>	<b>51 241,9</b>
 Eksport	38 336,1	49 385,2	44 980,9
Import	20 746,6	13 007,0	6 261,0
<b>Turkiya</b>	<b>20 316,5</b>	<b>14 747,5</b>	<b>46 441,5</b>
 Eksport	15 093,0	6 266,7	12 929,1
Import	5 223,4	8 480,8	33 512,4
<b>XXR</b>	<b>68 958,3</b>	<b>58 201,3</b>	<b>39 315,9</b>
 Eksport	40 415,9	30 678,5	16 844,5
Import	28 542,4	27 522,8	22 471,4
<b>Afg'oniston</b>	<b>15 414,3</b>	<b>49 940,9</b>	<b>30 386,8</b>
 Eksport	14 784,6	49 215,3	27 620,7
Import	629,7	725,6	2 766,1
<b>Qozog'iston</b>	<b>43 837,5</b>	<b>17 978,8</b>	<b>20 991,7</b>
 Eksport	33 546,7	5 694,5	10 510,2
Import	10 290,8	12 284,2	10 481,5
<b>Germaniya</b>	<b>3 725,9</b>	<b>2 476,4</b>	<b>12 219,6</b>
 Eksport	2 010,7	728,1	305,9
Import	1 715,2	1 748,3	11 913,6
<b>Eron</b>	<b>5 318,4</b>	<b>2 768,7</b>	<b>4 903,5</b>
 Eksport	4 196,7	1 562,1	1 723,7
Import	1 121,7	1 206,7	3 179,8
<b>Hindiston</b>	<b>4 709,7</b>	<b>3 212,3</b>	<b>3 907,2</b>
 Eksport	996,4	1 236,8	289,3
Import	3 713,2	1 975,5	3 617,9
<b>Turkmaniston</b>	<b>1 165,8</b>	<b>1 866,6</b>	<b>3 633,9</b>
 Eksport	327,7	787,4	97,6
Import	838,1	1 079,3	3 536,2


Davomi

Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
<b>Belarus</b>	<b>1 980,8</b>	<b>1 140,2</b>	<b>3 173,2</b>
 Eksport	1 658,9	827,7	3 094,6
Import	321,8	312,4	78,7
<b>Tojikiston</b>	<b>10 336,7</b>	<b>9 514,9</b>	<b>2 342,7</b>
 Eksport	2 126,6	3 093,7	1 496,1
Import	8 210,0	6 421,2	846,6
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>1 342,3</b>	<b>849,7</b>	<b>2 000,4</b>
 Eksport	13,5	0,03	0,5
Import	1 328,8	849,7	1 999,9
<b>Avstriya</b>	<b>580,4</b>	<b>0,03</b>	<b>1 970,1</b>
 Eksport	-	0,03	0,1
Import	580,4	-	1 970,0
<b>Polsha</b>	<b>606,0</b>	<b>831,7</b>	<b>1 531,4</b>
 Eksport	488,4	462,9	1 083,5
Import	117,6	368,8	447,9
<b>Ekvador</b>	<b>682,1</b>	<b>424,4</b>	<b>1 391,4</b>
 Eksport	-	-	-
Import	682,1	424,4	1 391,4
<b>Portugaliya</b>	-	-	<b>754,6</b>
 Eksport	-	-	754,6
Import	-	-	-
<b>Latviya</b>	<b>91,1</b>	<b>141,7</b>	<b>730,1</b>
 Eksport	0,1	141,7	721,1
Import	90,9	0,05	9,0
<b>Estoniya</b>	<b>238,9</b>	<b>223,2</b>	<b>727,7</b>
 Eksport	-	0,1	0,2
Import	238,9	223,1	727,5
<b>Ozarbayjon</b>	<b>1 709,9</b>	<b>1 386,6</b>	<b>703,3</b>
 Eksport	1 709,9	1 386,6	703,3
Import	-	-	-



## SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024-yil yanvar-oktabr, ming AQSH doll.)\*




Surxondaryo viloyatida tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Angor tumani **12,7 %** ulush bilan **41 059,4** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Boysun tumanida **3,1 %** ulush bilan **10 024,6** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## SURXONDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2024-yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 37,0 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 16,2 % ga ko'paydi.



Surxondaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida 2023-yilning mos davriga nisbatan 16,2 % ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi 63,0 % ni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024-yil yanvar-oktabr holatiga ko'ra, 119 672,1 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 100 754,9 ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 18 917,2 ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## SURXONDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI

(2024-yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)

Rossiya – 73,2		Qozog'iston – 17,5	
Turkmaniston – 3,0		Belarus – 2,7	
Tojikiston – 2,0		Ozarbayjon – 0,6	
Qirg'iz Respublikasi – 0,6		Ukraina – 0,3	
Moldova – 0,1		Armaniston – 0,1	




Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (73,2 %), Qozog'iston (17,5 %), Turkmaniston (3,0 %), Belarus (2,7 %) hamda Tojikiston (2,0 %) davlatlari bilan qayd etildi.




## SURXONDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-oktabr, ming AQSH dollari)




**Jami tashqi savdo  
aylanmasidagi ulushi**



**Jami eksportdagi ulushi**



**Jami importdagi ulushi**



Surxondaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 112 562,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 98 028,2 ming AQSH dollari, import hajmi esa 14 534,4 ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Qirg'iz Respublikasi va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




## SURXONDARYO VILOYATINING EKSPORTI



Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida Surxondaryo viloyatida eksportyorlar soni 257 taga yetdi va ular tomonidan 210 739,8 ming AQSH dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 21,8 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilindi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024-yil yanvar-oktabr, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-oktabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami eksport</b>	<b>172 998,4</b>	<b>210 739,8</b>	<b>92,1</b>	<b>121,8</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	86 959,4	140 245,3	88,3	161,3	50,3	66,6
Ichimliklar va tamaki	844,4	47,8	76,8 m.	5,7	0,5	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6 809,5	9 369,2	78,7	137,6	3,9	4,4
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	298,0	714,7	120,4	2,4 m.	0,2	0,3
Sanoat tovarlari	57 338,6	45 634,1	79,1	79,6	33,1	21,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	240,3	2 009,9	2,3 m.	8,4 m.	0,1	1
Turli xil tayyor buyumlar	14 989,8	7 794,4	4,2 m.	52,0	8,7	3,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	253,8	-	-	-	0,1
Xizmatlar	4 931,6	4 669,7	150,6	94,7	2,9	2,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	586,9	0,7	65,8	0,1	0,3	-

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,9 % ni tashkil etib, ular oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (66,6 %), sanoat tovarlari (21,7 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (4,4 %), turli xil tayyor buyumlar (3,7 %) va xizmatlar (2,2 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-oktabr)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	127 272,4	183,6
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	12 781,0	73,2
Shakar, shakardan mahsulotlari va asal	100,5	84,0
Qaxva, choy, kakao, ziravorlar	71,6	3,4 m.
Hayvonlarga ozuqa (ishlov berilmagan donalardan tashqari)	10,3	-
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	9,5	24,4
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	7 363,2	2,9 m.
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindilari	1 436,6	57,4
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom - ashyo va mineral xomashyo	452,7	137,9
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	114,5	7,9
Tabiiy kauchuk (shu jumladan sintetik kauchuk va qayta ishlangan kauchuk)	2,4	-
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Bo'yoqlar, taninlar va bo'yoqlar	536,7	185,9
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga	139,6	98,5 m.
Noorganik kimyoviy moddalar	29,8	6,5 m.
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	7,0	439,9 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	1,3	3,3 m.
Kimyoviy vositalar	0,2	7,1
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	1 475,1	6,9 m.
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	200,2	-
Aniq soxalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	165,5	7,8 m.
Avtomobillar (xavo podushkalaridagi transport vositalari)	135,5	23,9 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	22,9	-
Kantselyariya mashinalari va avtomatik ma'lumotlarni qayta ishlash uskunolari	10,9	-

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	42 784,1	77,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tafsiflanmagan	2 547,5	198,0
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	209,7	54,5
Metaldan tayyorlangan buyumlar boshqa joyda tafsiflanmagan	61,7	88,4
Mantar va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	24,6	2,1 m.
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	6,6	68,3 m.
<b>Xizmatlar</b>		
Moliyaviy xizmatlar	1 775,8	120,2
Transport xizmatlari	962,7	76,0
Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari	882,5	88,0
Boshqa biznes xizmatlari	550,8	131,1
Sayohat	498,0	65,1
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	7 357,0	51,1
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	335,0	83,7
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	33,4	101,9
Har xil tayyor mahsulotlar	31,2	164,8 m.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	19,6	-
Poyabzal	18,2	10,6

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida MDH mamlakatlariga 100 754,9 ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qililib, jami eksportning 47,8 % tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



■ MDH davlatlari ■ Boshqa davlatlar



2024-yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Pokiston, Afg'oniston, XXR, Turkiya, Qozog'iston va Belarus kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 95,0 % ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024-yil yanvar-oktabr, % da)






## SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI *(yanvar-oktabr, yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Egallab turgan o‘rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Rossiya	16 115,0	84 172,1	72,0	5,2 m.	4	1
Pokiston	49 385,2	44 980,9	128,8	91,1	1	2
Afg‘oniston	49 215,3	27 620,7	3,3 m.	56,1	2	3
XXR	30 678,5	16 844,5	75,9	54,9	3	4
Turkiya	6 266,7	12 929,1	41,5	2,1 m.	5	5
Qozog‘iston	5 694,5	10 510,2	17,0	184,6	6	6
Belarus	827,7	3 094,6	49,9	3,7 m.	13	7
Eron	1 562,1	1 723,7	37,2	110,3	8	8
Tojikiston	3 093,7	1 496,1	145,5	48,4	7	9
Polsha	462,9	1 083,5	94,8	2,3 m.	17	10
Portugaliya	-	754,6	-	-	-	11
Latviya	141,7	721,1	1316,8 m.	5,1 m.	21	12
Ozarbayjon	1 386,6	703,3	81,1	50,7	9	13
Bangladesh	-	464,7	-	-	-	14
Irok	398,8	364,9	100,0	91,5	18	15
Ukraina	388,3	364,6	150,1	93,9	19	16
Germaniya	728,1	305,9	36,2	42,0	16	17
Hindiston	1 236,8	289,3	124,1	23,4	10	18
Qirg‘iz Resp-si	940,4	212,6	12,7	22,6	11	19
Bolgariya	18,7	172,1	-	9,2 m.	25	20



## SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024-yil yanvar-oktabr, ming AQSH doll.)\*



2023-y.

2024-y.

Viloyatimiz eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Denov tumani **11,2 %** bilan **23 562,5** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Oltinsoy **3,5 %** bilan **7 462,6** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024-yil yanvar-oktabr oylarida 254 309,1 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,4 m. yoki 179 740,4 tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (54,3 %), Pokiston (28,9 %), Qozog'iston (7,1 %), Afg'oniston (5,8 %) hamda Belarus (1,2 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024-yil yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 139 201,1 ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 63,2 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 66,1 % ni tashkil etdi.






















## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024-yil yanvar-oktabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p><b>Uzum quritilgan</b></p> <p>655,8 ming AQSH dollari</p> <p>360,9 tonna</p> <p>89,3 % ↓</p>	<p><b>Karam</b></p> <p>7 027,2 ming AQSH dollari</p> <p>31 833,9 tonna</p> <p>11,3 m. ↑</p>	<p><b>Piyoz</b></p> <p>23 363,3 ming AQSH dollari</p> <p>105 374,2 tonna</p> <p>8,5 m. ↑</p>	<p><b>Dukkakli donli ekinlar</b></p> <p>22 867,3 ming AQSH dollari</p> <p>7 393,7 tonna</p> <p>45,5 % ↓</p>
<p><b>Uzum</b></p> <p>17 279,4 ming AQSH dollari</p> <p>21 432,4 tonna</p> <p>30,0 m. ↑</p>	<p><b>Yer yong'oq</b></p> <p>7 139,7 ming AQSH dollari</p> <p>2 681,3 tonna</p> <p>3,2 m. ↑</p>	<p><b>Bodring</b></p> <p>366,8 ming AQSH dollari</p> <p>301,2 tonna</p> <p>9,1 % ↓</p>	<p><b>Meva va rezavorlar</b></p> <p>28 369,6 ming AQSH dollari</p> <p>31 855,5 tonna</p> <p>10,9 % ↑</p>
<p><b>Sabzavotlar</b></p> <p>16 189,8 ming AQSH dollari</p> <p>25 344,0 tonna</p> <p>3,2 m. ↑</p>	<p><b>Pomidor</b></p> <p>7 839,0 ming AQSH dollari</p> <p>10 762,2 tonna</p> <p>7,8 m. ↑</p>	<p><b>Qovun va tarvuz</b></p> <p>2 832,0 ming AQSH dollari</p> <p>13 950,7 tonna</p> <p>4,3 m. ↑</p>	



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024-yil yanvar-oktabr)

Davlatlar	tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Rossiya	154 137,1	75 563,9	54,3
 Pokiston	46 228,5	40 263,5	28,9
 Qozog'iston	33 298,2	9 892,2	7,1
 Afg'oniston	13 996,8	8 094,2	5,8
 Belarus	2 405,2	1 736,0	1,2
 Latviya	1 347,4	718,6	0,5
 Ozarbayjon	361,9	609,0	0,4
 Ukraina	491,5	361,9	0,3
 Germaniya	139,7	305,6	0,2
 Eron	239,9	293,4	0,2
 Polsha	174,6	223,0	0,2
 Irok	374,3	185,2	0,1
 Turkiya	63,7	164,4	0,1
 Tojikiston	203,9	135,2	0,1
 Birlashgan Arab Amirliklari	274,4	124,3	0,1
 Turkmaniston	104,9	97,2	0,1
 Malayziya	12,6	93,9	0,1
 Buyuk Britaniya BQ va Shimoliy Irlandiya	19,0	83,1	0,1
 AQSh	13,0	76,4	0,1
 Boshqa davlatlar	422,4	180,3	0,1

\* qiymat ifodasidan



2024-yil yanvar-oktabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta Rossiyaga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 54,3 %).



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.


Xususan, 2024-yil yanvar-oktabr oyi yakuni bo'yicha 50 140,3 ming AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 23,8 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 30,1 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (76,7 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (14,7 %), gazlamalar (6,5 %), va gilamlar (0,3 %), asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan dunyoning 19 ta davlatiga eksport qilindi.



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, ming AQSH dollari)



## DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, ming AQSH dollari)

		2023-yil	2024-yil	O‘sish sur‘ati, % da
	XXR	23 582,5	16 843,7	71,4
	Turkiya	4 996,2	11 377,8	2,3 m.
	Afg‘oniston	32 906,3	8 060,5	24,5
	Rossiya	6 242,8	5 084,1	81,4
	Pokiston	961,9	4 582,9	4,8 m.
	Eron	53,1	1 430,3	26,9 m.
	Polsha	-	860,3	-
	Portugaliya	-	754,6	-
	Bangladesh	-	464,7	-
	Bolgariya	-	172,1	-
	Boshqa davlatlar	2 978,5	509,4	17,1




To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi XXR (33,6 % – 16 843,7 ming AQSH dollari), Turkiya (22,7 % – 11 377,8 ming AQSH dollari), Afg‘oniston (16,1 % – 8 060,5 ming AQSH dollari), Rossiya Federatsiyasi (10,1 % – 5 084,1 ming AQSH dollari) va Pokiston (9,1 % – 4 582,9 ming AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



## XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-oktabr, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 4 669,7 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 2,2 % ini tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 5,3 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy (38,0 %), transport (20,6 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (18,9 %), boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (11,8 %) va safarlar (turizm) (10,7 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



## SURXONDARYO VILOYATINING IMPORTI




2024-yilning yanvar-oktabr oylarida import hajmi 112 971,0 ming AQSH dollarini va 2023-yilning mos davriga nisbatan 122,2 % tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (63,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (18,7 %), hamda sanoat tovarlari (4,6 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (4,4 %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024-yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20 682,0 ming AQSH dollariga ko'paydi va 112 420,3 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 550,7 ming AQSH dollariga yetdi.



## SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami import</b>	<b>92 482,8</b>	<b>112 971,0</b>	<b>71,2</b>	<b>122,2</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	20 599,3	21 111,8	67,9	102,5	22,3	18,7
Ichimliklar va tamaki	259,0	1 231,1	-	4,8 m.	0,3	1,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 429,7	1 522,6	68,8	106,5	1,5	1,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 828,7	3 880,1	3,3 m.	2,1 m.	2	3,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	370,0	161,9	5,4 m.	43,8	0,4	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	3 190,4	5 022,7	69,8	157,4	3,4	4,4
Sanoat tovarlari	19 388,8	5 201,4	37,7	26,8	21	4,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	42 038,7	71 457,8	112,3	170,0	45,5	63,3
Turli xil tayyor buyumlar	2 633,8	2 830,9	78,9	107,5	2,8	2,5
Xizmatlar	744,5	550,7	3,8 m.	74,0	0,8	0,5



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-oktabr)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	10 153,7	79,9
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5 517,1	93,7
Tirik hayvonlar, 03-bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	4 141,1	3,7 m.
Hayvonlarga ozuqa (ishlov berilmagan donalardan tashqari)	590,3	138,8
Go'sht va go'sht mahsulotlari	323,0	-
Shakar, shakardan mahsulotlari va asari	217,9	111,6
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	129,1	64,8
Qaxva, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	36,8	47,2
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	2,5	-
Balik	0,4	-
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	1 041,5	173,4
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	381,6	115,2
Probka va yog'och taxtalar	80,9	17,2
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom - ashyo va mineral xomashyo	15,9	134,7
Qog'oz massasi	2,5	-
Teri, teri va mo'yna, yechingan	0,2	-
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	3 649,2	199,6
Ko'mir, koks va briketlar	230,9	-
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	3 108,4	179,8
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	594,8	135,7
Noorganik kimyoviy moddalar	437,0	181,4
Organik kimyoviy moddalar	337,3	2,4 m.
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	230,0	190,7
Birlamchi shakldagi plastmassalar	111,9	133,6
O'g'itlar (272 guruhga kiritilganlardan tashqari)	75,8	24,2
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga	70,2	71,3
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	57,3	2,5 m.




XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilga nisbatan, % da
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	908,8	7,6 m.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	838,9	86,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan suv-kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari blokli binolar, armatura va mahkamlash	578,9	46,4
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	245,8	123,5 m.
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	117,6	7,8 m.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	110,6	39,9
Poyabzal	16,4	3281,0 m.
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	13,8	14,6 m.
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	3 183,2	42,9
Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	827,2	11,0
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	510,3	53,1
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	373,6	13,2
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	194,9	60,1
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	60,9	42,5
Rangli metallar	27,5	53,8
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	21,2	19,9
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor charm mahsulotlari, mo'ynalar	2,8	-
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	39 395,2	193,9
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	17 865,7	2,3 m.
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	4 872,8	3,4 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	2 945,3	74,7
Metallni qayta ishlash mashinalari	2 192,6	4,6 m.
Avtomobillar (xavo podushkalaridagi transport vositalari xam)	2 185,9	27,0
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	1 665,3	101,7 m.
Boshqa transport vositalari	198,2	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	136,9	23,2 m



2024-yil yanvar-oktabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 16,7 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 11,1 % ga kamaydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2024-yil yanvar-oktabr oylarida viloyatimiz 46 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Turkiya, XXR, Germaniya, Qozog'iston, Pokiston, Hindiston va Turkmaniston) jami importning 3/4 qismini tashkil etdi.



## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024-yil yanvar-oktabr, % da)






## SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Turkiy	8 480,8	33 512,4	162,4	4,0 m.	4	1
XXR	27 522,8	22 471,4	96,4	81,6	1	2
Germaniya	1 748,3	11 913,6	101,9	6,8 m.	10	3
Qozog'iston	12 284,2	10 481,5	119,4	85,3	3	4
Pokiston	13 007,0	6 261,0	62,7	48,1	2	5
Hindiston	1 975,5	3 617,9	53,2	183,1	8	6
Turkmaniston	1 079,3	3 536,2	128,8	3,3 m.	12	7
Rossiya Federatsiyasi	5 441,0	3 458,6	13,9	63,6	6	8
Eron	1 206,7	3 179,8	107,6	2,6 m.	11	9
Afg'oniston	725,6	2 766,1	115,2	3,8 m.	15	10
Koreya Respublikasi	849,7	1 999,9	63,9	2,4 m.	13	11
Avstriya	0,0	1 970,0	-	-	-	12
Ekvador	424,4	1 391,4	62,2	3,3 m.	17	13
Tojikiston	6 421,2	846,6	78,2	13,2	5	14
Estoniya	223,1	727,5	93,4	3,3 m.	21	15
Qirg'iz Respublikasi	104,4	490,7	9,7	4,7 m.	26	16
Shveysariya	123,3	466,4	47,0	3,8 m.	24	17
Polsha	368,8	447,9	3,1 m.	121,4	19	18
Chexiya	187,4	400,1	56,3	2,1 m.	23	19
Xianggan (Gonkong) (Britaniya)	375,0	374,0	2,7 m.	99,7	18	20



## SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024-yil yanvar-oktabr, ming AQSH doll.)\*




Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Angor 19,5 % bilan 22 070,6 ming AQSH dollarini, eng quyi, Sherobod 0,4 % bilan 406,7 ming AQSH dollarini tashkil etdi.




## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024-yil yanvar-oktabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 5 201,4 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 73,2 % kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 4,6 % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN HAMKOR DAVLATLAR (2024-yil yanvar-oktabr)



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (3 183,2 ming AQSH dollari), noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar (827,2 ming AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (510,3 ming AQSH dollari), yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (373,6 ming AQSH dollari), rezina buyumlari (194,9 ming AQSH dollari), qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar (60,9 ming AQSH dollari), rangli metallar (53,8 ming AQSH dollari), probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (21,2 ming AQSH dollari) va teri, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor charm mahsulotlari, mo'ynalar (2,8 ming AQSH dollari) tashkil topgan.